

Z.S. ABDULLAYEV, S.S. MIRZAYEV,
G. SHODMONOVA, N.B. SHAMSIDDINOV

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI



UDK: 004(075) 007(075)
32.81ya73 1-60

O'quv qo'llanmada «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining nazariy asoslari, axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minoti keltirilgan. O'quv qo'llanma «Qishloq va suv xo'jaligi» bilim sohasining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

В учебном пособии приводятся теоретические основы предмета «Информатика и информационные технологии», техническое и программное обеспечение информационных технологий. Учебное пособие предназначено для студентов всех направлений области знаний «Сельское и водное хозяйство».

The manual contains the theoretical backgrounds of «Computer science and information technologies» course, hardware and software of information technologies. The manual is intended for students of all directions of a bachelor degree in «Agriculture and water management» sphere.

M u a l l i f l a r :

Z.S.Abdullayev, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

S.S.Mirzayev, texnika fanlari nomzodi, dotsent

G.Shodmonova, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

N.B.Shamsiddinov, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

T a q r i z c h i l a r :

O.T.Kenjaboyev, iqtisod fanlari doktori, professor

*B.B.Akbaraliyev, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
«Axborot texnologiyalari dasturiy ta'minoti» kafedrasi dotsenti*

M.Yusupov, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-06-442-3

© Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislarining roli benihoya kattadir. Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tadbiiq etilmoqda.

Ta'lim tizimidagi isloh chuqur va keng ko'lamli islohotlarning mazmuni va amalga oshirish muddatlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rish» zarur.

Bugungi kunda barcha yo'nalishlarning zamonaviyligi ularning kompyuterlashtirilganlik darajasi bilan o'lchanmoqda. Shu bois informatika va yangi axborot texnologiyalarining jamiyatimiz ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga jadal sur'atlar bilan kirib kelganligi zamona-mizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lsa, informatika fanini o'zlashtirish – davr talabidir.

Qo'llanma namunaviy dastur asosida yozilgan bo'lib, 14 bobdan iborat. Har bir bobning nihoyasida takrorlash uchun savol va topshiriqlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma talabalarning informatika asoslarini o'zlashtirishlari va kompyuterlardan o'z kasbii